# Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentyabrdagi 585-son qarori ijrosi yuzasidan institutda tahsil olayotgan ota-onasi yoʻq, boquvchisi yoʻq yolgʻiz ayol talaba-qizlar bilan suhbat bayoni

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini taʼminlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son qarori ijrosini taʼminlash, shuningdek, ehtiyojmand xotin-qizlarning taʼlim olishga boʻlgan qiziqishlarini ragʻbatlantirish va moddiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash, bilim olishlari uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida, 2021/2022 oʻquv yilidan boshlab bazaviy toʻlov-kontrakt asosida davlat oliy taʼlim muassasasiga qabul qilingan, ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yoʻq yolgʻiz ayollarni (keyingi oʻrinlarda talabgorlar) Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda davlat oliy taʼlim muassasalari hisobidan oʻqitish tartibi joriy etilgan.

Prezident qarorini ijrosini taʼminlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 585-son qarori ijrosi yuzasidan institutdagi 33 nafar  ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yoʻq yolgʻiz ayollar bilan strategiya xonasida yoshlar masalalari va ma’naviy ma’rifiy ishlar bo’yicha prorektor,xotin-qizlar masalalari bo’yocha kengash raisi birgalikda suhbat o’tkazishdi. Suhbat davomida talaba qizlarimiz o’zlarini qiziqtirgan barcha savollariga javob olishdi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**